

CHO'L SHAROITIDA URCHITILUVCHI QORAKO'L QO'YLARINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sh. X. Jiyanmuradova

tayanch doktorant

Z. S. Klichev

q.x.f.d., (PhD) Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada cho'l sharoitida boqilayotgan qorako'l qo'ylarining biologik va mahsuldorlik ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Zavod tipi, nasldor, seleksiya, zot, poda, indeks, naslchilik, efemer, gepis, irsiy, mobilizatsiya.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda mamlakatimizda chorvachilikni, xususan qorako'lchilikni rivojlantirishning hozirgi davr bosqichida aholi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, aholini oziq-ovqat, sanoatni xom ashyo bilan ta'minlash, atrof-muhit va odamlar sog'ligini saqlashning muhim sharti o'simlik va hayvonot olamining irsiy xilma-xilligini saqlash va uni mobilizatsiya qilish hisoblanadi.

Respublikamiz umumiy yer maydonining 21,2 % tog'li va 78,8 % tekislikdan iborat bo'lib, katta qismi cho'l va yarim cho'l hududlarini, intensiv sug'oriladigan hududlar esa kichik miqdorni tashkil etadi. Shunga asosan cho'l va yarim cho'l hududlari ekologiyasiga moslashgan qishloq xo'jalik hayvonlari biologiyasini chuqur o'rganish muhim sanaladi. Bunday ekologik sharoitga chorva mollarining ikki turi qorako'l qo'ylar va tuyalar cho'lning og'ir sharoitiga yaxshi moslashgan.

Dunyo miqyosida qorako'l qo'ylari bosh soni jihatidan eng ko'p bosh soniga ega bo'lgan kosmopolit zot hisoblanib, tarkibida to'rtta zot tipi va o'ndan ziyodroq rang va rangbaranglikdagi 33 ta zavod tipi mavjud bo'lib, bugungi kunda qorako'lchilik mahsulotlariga bo'lgan talabning yuqori bo'lganligi sababli Buxoro, Qoraqalpoq va Surxondaryo zot tipidagi qorako'l qo'ylari hamda serpusht tipdagi qora rangli qorako'l qo'ylari urchitilmoqda [5; 3].

Qorako'l qo'ylarini faqat ularning individual rivojlanish qonuniyatlaridan foydalanish, ularning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etadigan omillarni hisobga olish yo'li bilan takomillashtirish mumkin. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi hayvonlarining mahsuldorligi 70-80% ga boqish sharoitlari hamda ozuqaga va atigi 20-30% ga genetik potensialga bog'liq. Shuning uchun chorvaning mahsuldorligini oshiruvchi tadbirlar orasida hayvonning ma'lum yosh davrlarida quvvatga va turli oziqaviy moddalarga bo'lgan ehtiyojini qoniqtirishga asoslangan chorvaning to'la qonli oziqlantirish muhim ahamiyatga ega [2].

Qorako'l qo'ylari o'simlik qoplami siyrak, sho'r suvli, qurg'oqchil yaylovlarda yoz, kuz va qish fasllarida mutlaqo ko'k ozuqalarni iste'mol qilmasdan, urchish, tez yetiluvchanlik, jadal o'sish va rivojlanish xususiyatlarini saqlagan holda, juda qimmatli mahsulotlar (qorako'l teri, go'sht, jun, po'stinbop teri va sut) berish xususiyatiga ega.

Qo'ylarning etologik ko'rsatkichlariga tashqi muhit: issiq, sovuq, yomg'ir, qor, shamol, bo'ron katta ta'sir ko'rsatadi va ularning yaylovdagi harakatini va mahsuldorligini butunlay o'zgartirib yuboradi. Shu sababli qish faslida qo'ylar tirik vaznining o'rtacha 15-20 kg ga kamayish holatlari kuzatiladi [4].

Qorako'l zotining ko'pchiligini tashkil etuvchi qora rangli qorako'l qo'ylarini turli cho'l regionlarida muvaffaqiyatli urchitish mumkin. Sur rangli qorako'l qo'ylari uchun yuqoriroq darajada ta'minlangan yaylov-ozuqa sharoitini yaratish maqsadga muvofiq. Zot strukturasida muhim o'rin egallaydigan sur rangli qorako'l qo'ylari (Buxoro, Qoraqolpoq, Surxondaryo tiplari) hozirgi kunda asosan qumli va gipsli cho'l hududlarida ko'proq urchitilib kelinmoqda. Bu guruh ichida Buxoro zot tipidagi qo'ylar ko'pchilikni (85-95 %) tashkil etadi. Ularning respublika miqiyosida yuqori mahsuldor zavod tiplari yaratilgan va ular bilan umuman olganda muvaffaqiyatli seleksiya-naslchilik ishlari yuritib kelinmoqda [4].

Qorako'l qo'ylari urchitiluvchi cho'l regionlarida yaylovlar hosildorligining keskin o'zgarib turishi ularning mahsuldorligiga, o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadiki, bu ko'rsatkichlarning maksimal darajada yuzaga chiqishi o'sish va rivojlanishni tezlashtiruvchi yoki sekinlashtiruvchi irsiy hamda paratipik omillarga bog'liq. Shu bilan birga qorako'l qo'ylarining o'sish va rivojlanishi ular urchitiladigan ekologik sharoitga moslashishiga ham bog'liq [2].

Cho'l mintaqasi o'z navbatida: qumli va gipsli cho'llarga bo'linadi. Cho'lning iqlim sharoiti, yillik yog'ingarchilik miqdorining 100-200 mm dan oshmasligi, yozda havo harorati maksimumi +46-48°C, qishda havo harorati minimumi -30°C gacha pastga tushib ketishi bilan tavsiflanadi.

Gepisli cho'l yaylovlarining o'simliklar qoplami, qumli cho'l yaylovlariga nisbatan siyrak bo'lib ulardagi oziqabop o'simlik turlarining miqdori 30 dan ziyodroq bo'lsa, qumli cho'llarda ikki barobar ko'proq bo'ladi. Tuprog'i sho'rlanmagan, tuproqda tuz miqdorining birmuncha oshishi, 80-123 sm chuqurlikdagi zich qoldiq qatlamda (1,18-1,35%) uchrashi kuzatiladi. Tuproqda gips miqdori 0,29-12,0 % atrofida o'zgarib turadi, gepisli qatlamda esa u 36,6% gacha yetadi. Tuproqda gumus juda kam miqdorda bo'lib, yuqori qatlamda 0,30-0,81% ni tashkil qiladi va chuqurlashgan sayin uning miqdori ham 0,17% gacha kamayadi [2].

Qo'ylarning mahsuldorligi ularning oziqlantirish va saqlash bo'yicha olib borilgan tadbirlarning asosiy natijasi hisoblanadi. Qo'zilarining tug'ilgandagi tirik vazni shuvoq-efemerli yaylovlarda efemerli yaylovlarga qaraganda 0,18 kg yuqori bo'lgan. Qo'zilar yoshining 21 kunligida efemer yaylov tipida saqlangan qo'zilar tirik vazni hamda mutloq o'sish bo'yicha shuvoq-efemerli yaylovlarda boqilgan qo'zilarni 0,2 kg va 0,36 g ga yuqori bo'lgan. Sovliqlar sutdorligi ham efemer yaylov tipida saqlanganda 1,8 kg yuqori bo'lgan.

Ushbu holat efemer yaylovlarda yashil oziqalarni o‘nib chiqishi hisobiga hosildorlikning ortib borishi bilan izohlanadi. Qo‘zilarning 4-4,5 oylik davrida ham tirik vazn ko‘rsatkichlari yuqori holatda saqlanib qolgan [1].

Qo‘zilarning 1 yoshligida tirik vazn va jun qirqim miqdori bo‘yicha mutloqo teskari holat kuzatilgan. Shuvoq-efemerli yaylovlarda boqilgan qo‘zilarda tirik vazn va jun qirqim miqdori efemerli yaylovlardagi tenqurlaridan 0,35 kg va 70,0 g yuqori bo‘lgan. Qish mavsumida shuvoq-efemerli yaylovlar hosildorligi yuqori bo‘lishi natijasida ushbu tipdagi yaylovlarda saqlangan qo‘ylar efemer yaylov tipidagi qo‘ylardan yaxshiroq rivojlangan. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha 18 oylikda shuvoq-efemerli tipdagi yaylovlardagi tenqurlariga nisbatan 0,24 kg ortiq bo‘lgan [1].

Xulosa

Qorako‘l qo‘ylar boshqa qo‘y zotlariga qaraganda mintaqamiz cho‘l va sahro yaylovlarida butun yil fasllarida boqishga yaxshi moslashgan. Qorako‘l qo‘ylarining bunday imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish natijasida cho‘l hududlarida boqilayorgan qo‘ylardan ham yuqori darajada mahsulot olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Boboqulov N.A. Qorako‘lchilikda mahsulot yetishtirish texnologiyasi. Monografiya. Samarqand 2022-y. 22-24 b.
2. Ismailov M.Sh. Qorako‘l qo‘zilarni ratsional parvarishlash asosida ularning mahsuldorlik salohiyatini oshirishning texnologik asoslari. // Zooveterinariya №10. 2016.-6.34-36 b.
3. Khamdamovna, Jiyanmuradova Shakhlo, and Zafar Klichev. "CORRECT ORGANIZATION OF DRIVING IN KARAKUL SUBJECTS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.5 (2022): 6-8.
4. Xatamov A. X. Adir sharoitida qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarining etologiyasi, biologiyasi va mahsuldorligi. Monografiya. Toshkent “OOO Zamin-nashr”, 2021-y. 3 b.
5. Жиянмуродова, Ш., & Кличев, З. С. (2023). Qorako‘l qo‘ylari avlodlarida tana tuzilish ko‘rsatkichlari. Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов, 1(1), 60-62.